

FOND BOZORI SAVDO TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Ravshanov Azamat Jabbor o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar bozori yo'nalishi magistranti.

rajazamatravshanov@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14740090>

Annotatsiya. Maqolada fond bozori savdo tizimlarini rivojlanirishning zamonaviy yo'nalishlari atroflichcha ko'rib chiqiladi. Avvalo, raqamlashtirish va avtomatlashtirishning ahamiyati, xususan, zamonaviy dasturiy mahsulotlar va texnologiyalar, blockchain va sun'iy intellekt asosida savdo tizimlarining samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan.

Shuningdek, savdo jarayonlarida shaffoflikni ta'minlash, moliyaviy ma'lumotlarni ochiq e'lon qilish va investorlar uchun teng imkoniyatlar yaratishning zaruriyati ta'kidlangan.

Maqolada qonunchilik bazasini takomillashtirish orqali bozorni boshqarish va ishtirokchilarining huquqiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha takliflar ilgari surilgan. Bozorni diversifikasiya qilish maqsadida yangi moliyaviy instrumentlarni, jumladan ekologik obligatsiyalar va raqamli aktivlarni joriy etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, bozor ishtirokchilari va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, shuningdek, xalqaro standartlar va hamkorlikni rivojlanirish orqali bozorning raqobatbardoshligini oshirish yo'llari muhokama qilinadi.

Maqola davomida fond bozorining zamonaviy savdo tizimlarini rivojlanirishning mamlakat iqtisodiy barqarorligi va kapitalni samarali taqsimlashdagi o'rni yoritib berilgan.

Ushbu tadqiqot fond bozori ishtirokchilari, davlat organlari va investitsiya faoliyatini rivojlanirishga qiziquvchilar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, bozorning kelgusidagi rivojlanishi uchun ilmiy asos sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: fond bozori, savdo tizimlari, raqamlashtirish, avtomatlashtirish, blockchain, sun'iy intellekt, shaffoflik, qonunchilik bazasi, moliyaviy instrumentlar, xalqaro hamkorlik, iqtisodiy barqarorlik, investitsiya, diversifikasiya, moliyaviy savodxonlik.

DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF STOCK MARKET TRADING SYSTEMS

***Abstract.** The article comprehensively examines modern trends in the development of stock market trading systems. First of all, the importance of digitization and automation, in particular, issues of increasing the efficiency of trading systems based on modern software products and*

technologies, blockchain and artificial intelligence are analyzed. The need to ensure transparency in trading processes, open disclosure of financial information and create equal opportunities for investors is also emphasized. The article puts forward proposals for improving market management and ensuring the legal security of participants by improving the legislative framework. The possibilities of introducing new financial instruments, including ecological bonds and digital assets, in order to diversify the market are analyzed. In addition, ways to increase the financial literacy of market participants and the population, as well as ways to increase the competitiveness of the market through the development of international standards and cooperation are discussed. The article highlights the role of the development of modern stock market trading systems in the country's economic stability and efficient allocation of capital. This study is of theoretical and practical importance for stock market participants, government agencies, and those interested in the development of investment activities, and serves as a scientific basis for the future development of the market.

Keywords: stock market, trading systems, digitization, automation, blockchain, artificial intelligence, transparency, legislative framework, financial instruments, international cooperation, economic stability, investment, diversification, financial literacy.

НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СИСТЕМ ТОРГОВЛИ НА ФОНДОВОМ РЫНКЕ

Аннотация. В статье дается комплексный обзор современных тенденций развития торговых систем фондового рынка. В первую очередь была проанализирована значимость цифровизации и автоматизации, в частности вопросы повышения эффективности торговых систем на базе современных программных продуктов и технологий, блокчейна и искусственного интеллекта. Также была подчеркнута необходимость обеспечения прозрачности торговых процессов, открытого раскрытия финансовой информации и создания равных возможностей для инвесторов. В статье выдвигаются предложения по совершенствованию правовых основ регулирования рынка и обеспечения правовой защищенности участников. В целях диверсификации рынка будут проанализированы возможности внедрения новых финансовых инструментов, включая экологические облигации и цифровые активы. Кроме того, будут обсуждаться пути повышения конкурентоспособности рынка за счет повышения финансовой грамотности участников рынка и населения, а также развития международных стандартов и сотрудничества.

В статье подчеркивается роль развития современных систем торговли на фондовом рынке в обеспечении экономической стабильности страны и эффективном

распределении капитала. Данное исследование имеет теоретическое и практическое значение для участников фондового рынка, государственных органов, лиц, заинтересованных в развитии инвестиционной деятельности, и служит научной основой для будущего развития рынка.

Ключевые слова: фондовый рынок, торговые системы, цифровизация, автоматизация, блокчейн, искусственный интеллект, прозрачность, законодательная база, финансовые инструменты, международное сотрудничество, экономическая стабильность, инвестиции, диверсификация, финансовая грамотность.

Kirish: Fond bozori zamnaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, investitsiyalarni jalg qilish va kapitalni samarali taqsimlashda katta rol o'ynaydi. Bozorning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning savdo tizimlarining rivojlanganligiga bog'liq. Savdo tizimlari faqat tranzaksiyalarni amalga oshirish vositasi bo'lib qolmasdan, balki investorlar uchun ishonchli, qulay va shaffof muhitni yaratishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda texnologik rivojlanish va global moliyaviy talablar fond bozori ishtirokchilariga yangi imkoniyatlar va bir vaqtning o'zida qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun fond bozorini modernizatsiya qilish, xususan, savdo tizimlarini takomillashtirish, global raqobatbardoshlikni ta'minlash va investorlarning ishonchini qozonish ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Ushbu maqolada fond bozori savdo tizimlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, ularni amalga oshirish yo'llari va global tendensiyalarga moslashish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Bozorning zamnaviy talablariga javob beradigan texnologiyalarni joriy etish, shaffoflikni ta'minlash va qonunchilikni takomillashtirish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. So'nggi yillarda fond bozori savdo tizimlarini rivojlantirish masalasi iqtisodiyot va moliya sohasidagi eng dolzarb mavzulardan biriga aylandi.

Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, blockchain kabi innovatsiyalar bozor infratuzilmasini o'zgartirib, investorlar uchun qulay va xavfsiz muhit yaratish imkoniyatini beradi.

Bu borada xorijiy va rus olimlari tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularning har biri mazkur sohani rivojlantirish uchun qimmatli ilmiy va amaliy tavsiyalarni ilgari suradi.

Robert Shiller o‘z tadqiqotlarida fond bozori narxlari o‘zgaruvchanligini va spekulyatsiyalarni tahlil qilishni davom ettirdi. 2017-yilda u bozor psixologiyasiga texnologik innovatsiyalar, ayniqsa, sun’iy intellekt va algoritmik savdoning ta’sirini ko‘rsatdi. Shiller texnologiyalar shaffoflikni oshirib, xatarlarni kamaytirish orqali bozor barqarorligini ta’minalashga yordam berishini ta’kidladi (Shiller, 2017).

2018-yilda Andrei Kirilenko va Andrew Lo algoritmik savdo va yuqori tezlikdagi savdo tizimlarining fond bozorlari rivojlanishiga ta’sirini tadqiq qildilar. Ular bu tizimlarning samaradorlikni oshirishi bilan birga, bozorlarning notejis rivojlanishi va likvidlikning qisqa muddatda o‘zgaruvchanligiga olib kelishi mumkinligini ta’kidlashdi (Kirilenko & Lo, 2018).

Paul Romer, texnologik innovatsiyalar sohasidagi tadqiqotlari uchun Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan olim, texnologik taraqqiyotning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini o‘rganib, raqamlashtirishning fond bozori infratuzilmasini yaxshilashdagi rolini ohib berdi (Romer, 2018).

2021-yilda Bruno Biais va uning hamkasblari blockchain texnologiyalarining moliyaviy bozorlar savdo tizimlarida qo‘llanilishi bo‘yicha keng qamrovli tadqiqot olib borishdi. Ular blockchain texnologiyasi orqali tranzaksiyalar xavfsizligi va tezligini oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatib, ushbu texnologiya kelajakda fond bozorlarining ajralmas qismiga aylanishini bashorat qilishdi (Biais et al., 2021).

Rossiyada ham fond bozori savdo tizimlarini rivojlantirish masalasida samarali tadqiqotlar olib borilmoqda. Leonid Gohberg Rossiya moliyaviy bozorlarida innovatsion texnologiyalarni, xususan, blockchain va sun’iy intellektni qo‘llash imkoniyatlarini o‘rgandi. U texnologiyalarni joriy etish orqali shaffoflikni oshirish va investitsion muhitni yaxshilash zarurligini ta’kidladi (Gohberg, 2017).

Alexander Abramov Rossiya fond bozorlari uchun xalqaro standartlarga mos qonunchilikni ishlab chiqish va savdo tizimlarining shaffofligini ta’minalash bo‘yicha tadqiqot olib bordi. Uning tadqiqotlari Rossiyada investorlarni himoya qilish tizimini kuchaytirish uchun amaliy asos bo‘lib xizmat qilmoqda (Abramov, 2018).

Vladimir Mau 2020-yilda savdo tizimlarini rivojlantirishda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikning muhimligini ta’kidladi. U fond bozorlarini rivojlantirishda institutsional o‘zgarishlarning ahamiyatini ko‘rsatdi (Mau, 2020).

2023-yilda Dmitriy Evstigneев xalqaro investitsiyalarni jalb qilish va Rossiya fond bozorlarini global tizimga integratsiya qilish masalalarini o‘rgandi. U bozor raqobatbardoshligini oshirish uchun raqamli infratuzilmani rivojlantirish zarurligini qayd etdi (Evstigneev, 2023).

Mazkur tadqiqotlar O‘zbekiston fond bozorlari uchun ham dolzarbdir. Xalqaro tajribadan foydalanish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va savdo tizimlarini modernizatsiya qilish orqali mahalliy bozorning raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Ushbu olimlarning ishlari milliy sharoitlarga moslashtirilgan holda O‘zbekiston fond bozori infratuzilmasini rivojlantirishda qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Fond bozori savdo tizimlarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar mazmuni va ko‘lami keng bo‘lib, turli xil nazariy, empirik va texnologik yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tadqiqotlarda asosiy maqsad – bozor samaradorligini oshirish, investorlar ishonchini mustahkamlash va texnologik yangiliklarni joriy etishning amaliy yechimlarini topishdir. Metodologiya turli yo‘nalishlarda o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning har biri dolzARB masalalarni hal qilishga qaratilgan.

Tadqiqotlar zamonaviy iqtisodiy nazariyalar va moliyaviy modellarni tahlil qilish bilan boshlanadi. Ushbu bosqichda tadqiqotchilar bozor samaradorligi, likvidlik va shaffoflik kabi asosiy tushunchalarni ko‘rib chiqadilar.

Misol uchun, Robert Shiller (2017) texnologik innovatsiyalarning fond bozorlari barqarorligiga ta’sirini o‘rganib, sun’iy intellekt va algoritmik savdoning xatarlarni kamaytirishdagi rolini aniqladi. Ushbu nazariy tahlil savdo tizimlarining yangi uslublarini rivojlantirish uchun asos bo‘ldi.

Tadqiqot metodologiyasining muhim qismi real bozor ma’lumotlarini yig‘ish va tahlil qilishdir. Ushbu yondashuv orqali tadqiqotchilar savdo tizimlarining samaradorligi va texnologiyalarning joriy etilishi bilan bog‘liq natijalarini baholaydilar.

Andrei Kirilenko va Andrew Lo (2018) algoritmik savdo tizimlarining ta’sirini tahlil qilish uchun statistik ma’lumotlardan foydalanib, bozor likvidligi va tranzaksiyalar tezligini o‘rganishdi.

Ular yuqori tezlikdagi savdoning ijobjiy va salbiy jihatlarini aniqlash uchun empirik usullardan foydalangan.

Texnologik innovatsiyalarni o‘rganish savdo tizimlarini rivojlantirishda asosiy o‘rin tutadi.

Blockchain, sun’iy intellekt va raqamli platformalarning imkoniyatlarini tadqiq qilish metodologiyaning muhim qismidir.

Bruno Biais va uning hamkasblari (2021) blockchain texnologiyasining moliyaviy bozorlar uchun ahamiyatini tahlil qilishdi. Ular tranzaksiyalar xavfsizligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va ishtirokchilar o‘rtasidagi ishonchni kuchaytirish imkoniyatlarini modellashtirish orqali namoyon qilishdi.

Milliy fond bozori rivojlanishi uchun boshqa davlatlarning tajribasini o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Ushbu metodologik yondashuv orqali global bozor standartlari va ilg‘or tajribalarning milliy sharoitlarga moslashtirilishi o‘rganiladi.

Alexander Abramov (2018) Rossiya fond bozorlari rivoji uchun xalqaro standartlarga mos qonunchilik va infratuzilmani takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqdi. Uning tadqiqoti xalqaro investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini aniqlashga yordam berdi.

Tadqiqotlarda matematik modellar va statistik usullardan foydalanish bozor samaradorligini baholash, xavf tahlili va innovatsion yondashuvlarni joriy etishda asosiy vosita hisoblanadi. Ushbu usul orqali tadqiqotchilar savdo tizimlarining samaradorlik darajasini modellashtiradilar.

Masalan, Dmitriy Evstigneev (2023) Rossiya fond bozorlari uchun yangi raqamli infratuzilma modellari ishlab chiqib, ularning xalqaro standartlarga moslashuvchanligini sinovdan o‘tkazdi.

Fond bozori ishtirokchilarining xulq-atvorini tahlil qilish tadqiqot metodologiyasining alohida qismi bo‘lib, investorlar qarorlari va bozor sharoitlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga xizmat qiladi. Bu yondashuv orqali psixologik omillar va spekulyatsiya ta’siri o‘rganiladi.

Shiller (2017) o‘z tadqiqotlarida investorlarning qaror qabul qilish jarayoniga bozor barqarorligi va texnologiyalarning ta’sirini chuqur tahlil qildi.

Fond bozori savdo tizimlarini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqot metodologiyasi o‘z ichiga nazariy, empirik, texnologik va statistik yondashuvlarni oladi. Har bir yondashuv savdo tizimlarining samaradorligini oshirish, ishtirokchilar uchun qulay shart-sharoit yaratish va xalqaro tajribalarni tatbiq etishga xizmat qiladi.

Mazkur metodologiyalar O‘zbekiston fond bozorlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, xalqaro tajribani milliy sharoitlarga moslashtirish va ishtirokchilarning xulq-atvorini o‘rganish orqali mahalliy bozorning raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Shu sababli, ushbu metodologiyalar bozorni yanada rivojlantirish uchun muhim ilmiy asos sifatida xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekistonda fond bozori so‘nggi yillarda iqtisodiy islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 2019–2023-yillar davomida amalga oshirilgan islohotlar bozor infratuzilmasini yaxshilash, texnologiyalarni joriy etish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratildi. Ushbu tahlilda fond bozori faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari, investorlar tarkibi va texnologiyalarni joriy etishning natijalari statistik ma’lumotlar asosida yoritiladi.

Fond bozori kapitalizatsiyasi va savdo hajmi O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishining muhim indikatorlari hisoblanadi. Quyidagi jadvalda ushbu yillardagi o‘zgarishlar keltirilgan.

1-jadval: Fond bozori ko‘rsatkichlarining rivojlanish dinamikasi (2019–2023-yillar)

Yillar	Fond bozori kapitalizatsiyasi (mlrd so‘m)	Savdo hajmi (mlrd so‘m)	O‘sish darajasi (%)
2019	25 000	5 200	-
2020	28 300	6 500	25.0
2021	33 800	7 800	20.0
2022	40 200	9 500	21.8
2023	47 600	11 200	18.0

Manba: <https://uzse.uz> ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2019-yildan 2023-yilgacha fond bozori kapitalizatsiyasi 90.4% ga o‘sdi. Savdo hajmi har yili barqaror ravishda oshib, 2023-yilda 2019-yilga nisbatan ikki baravar ko‘paydi. Bu natijalar savdo tizimlarini modernizatsiya qilish va investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlarning samaradorligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonda mahalliy va xorijiy investorlarning fond bozoridagi ishtiroki yildan-yilga oshib bormoqda. Quyidagi jadvalda investorlar tarkibi bo‘yicha ko‘rsatkichlar keltirilgan.

2-jadval: Investorlar tarkibining diversifikatsiyasi

Yillar	Mahalliy investorlar (%)	Xorijiy investorlar (%)	Jami ishtirokchilar (ming)
2019	85	15	80
2020	80	20	95
2021	75	25	110
2022	70	30	130
2023	65	35	150

Manba: <https://uzse.uz> ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Mahalliy investorlar ulushi kamayib, xorijiy investorlarning ishtiroki 2019-yildagi 15% dan 2023-yilda 35% ga oshdi. Jami ishtirokchilar soni esa 80 mingdan 150 minggacha ko‘paydi.

Bu xalqaro investorlarni jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish va qonunchilikni takomillashtirish natijasidir.

Texnologiyalarni joriy etish fond bozori savdo tizimlarining rivojlanishida asosiy omil hisoblanadi. Quyidagi jadvalda raqamli savdo platformalari va texnologik yangiliklarning o‘sish sur’ati keltirilgan.

3-javdal: Texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirish

Yillar	Onlayn tranzaksiyalar ulushi (%)	Savdo platformalar soni	Blockchain joriy etilishi (%)
2019	25	5	0
2020	40	7	10
2021	55	9	20
2022	65	11	30
2023	75	13	40

Manba: <https://uzse.uz> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Onlayn tranzaksiyalar ulushi 2019-yildagi 25% dan 2023-yilda 75% ga yetdi. Savdo platformalari soni 2019-yildagi 5 ta dan 13 taga ko'paydi. Blockchain texnologiyasi ham bosqichma-bosqich joriy etilib, 2023-yilda barcha savdolarining 40% ni tashkil etdi. Bu fond bozori operatsiyalarining xavfsizligi va shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston fond bozori iqtisodiy islohotlar doirasida jadal rivojlanib, mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirish uchun muhim omilga aylangan. 2019–2023-yillar davomida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida bozor infratuzilmasi mustahkamlanib, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va savdo tizimlarini modernizatsiya qilish bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishildi. Shu bilan birga, fond bozori rivoji yo'lida bir qator muammolar ham mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish orqali yanada yuqori natjalarga erishish mumkin.

Muhokama: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-sonli farmoni mamlakat iqtisodiy islohotlarining muhim qismi bo'lib, kapital bozorini zamonaviy talablarga moslashtirish, uning raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu farmon kapital bozorining huquqiy va amaliy asoslarini mustahkamlab, qimmatli qog'ozlar savdosini va investitsiyalar uchun qulay muhit yaratishni maqsad qilgan. Farmonning mazmuni va amaliy natijalari mamlakatning moliviy tizimida muhim o'rinn tutmoqda.

Farmon raqamli texnologiyalarni joriy etish va elektron savdo platformalarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratadi. 2023-yilga kelib onlayn tranzaksiyalarning ulushi 75% ga yetgani ushbu yo'nalishdagi muhim yutuqlardan biridir.

Raqamlashtirish orqali tranzaksiyalar shaffofligi va tezkorligi oshib, blockchain texnologiyalari xavfsizlikni ta'minlashda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

Elektron savdo tizimlari va mobil ilovalar orqali investorlar fond bozorida yanada qulay ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Farmonda aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan keng qamrovli dasturlarni amalga oshirish nazarda tutilgan. 2023-yil oxiriga kelib, 40 mingdan ortiq fuqaro "Moliya va investitsiya savodxonligi" dasturi doirasida o‘qitilishi bu boradagi yutuqlardan biridir.

Ushbu chora-tadbirlar mahalliy aholi orasida fond bozoriga qiziqishni oshirish va yangi investorlarni jalb qilish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Farmon kapital bozorini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratgan bo‘lsa-da, bir qator muammolar ham mavjud. Avvalo, bozor infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi tranzaksiyalar samaradorligini cheklab qo‘ymoqda. Elektron savdo platformalarining soni pastligi va texnologik yechimlarning cheklanganligi bu boradagi asosiy to‘siqdir. Shuningdek, xalqaro investorlar uchun qulay bozor muhitini yaratish maqsadida huquqiy me’yorlarni takomillashtirish talab etiladi. Moliyaviy savodxonlikning pastligi esa mahalliy investorlarni jalb qilishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Farmon kapital bozorini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Yangi moliyaviy instrumentlar, jumladan, islomiy moliyalashtirish vositalari va obligatsiyalarni joriy etish orqali yangi investorlarni jalb qilish mumkin. Shuningdek, xorijiy birjalar bilan hamkorlikni kengaytirish, IPO va SPO jarayonlarini soddallashtirish fond bozorini xalqaro darajaga chiqarishda muhim rol o‘ynaydi. Texnologiyalarni keng joriy etish orqali bozor shaffofligi va samaradorligi oshib, global investorlarga yanada jozibador bo‘lib qoladi.

Xulosa

Fond bozori savdo tizimlarini rivojlantirish bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu sohani modernizatsiya qilish iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlash, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, shuningdek, milliy moliya tizimining xalqaro standartlarga moslashuvini tezlashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Fond bozori savdo tizimlarining zamonaviy talablarga javob berishi mamlakatning iqtisodiy o‘sishi va raqobatbardoshligini oshirish yo‘lida hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Fond bozori savdo tizimlarini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri texnologik infratuzilmani takomillashtirishdir. Elektron savdo platformalari, blockchain texnologiyalari va raqamli vositalarni keng joriy etish orqali savdo jarayonlari tezkor, shaffof va ishonchli bo‘lmoqda.

Onlayn tranzaksiyalarning ulushi yil sayin oshib, bu texnologiyalarni yanada rivojlantirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Texnologik yechimlar orqali xalqaro investorlarga qulay sharoit yaratish milliy fond bozorini global darajaga chiqishga yordam beradi.

Shuningdek, xalqaro moliya bozorlari bilan integratsiyalashuvni kuchaytirish ushbu sohani rivojlantirishdagi muhim qadam hisoblanadi. Qimmatli qog‘ozlarni xalqaro birjalarda joylashtirish, IPO va SPO jarayonlarini soddalashtirish orqali xorijiy investorlarni jalg qilish imkoniyati ortmoqda. Bu esa nafaqat fond bozorining rivojlanishiga, balki milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishiga xizmat qiladi.

Fond bozori savdo tizimlarini rivojlantirish O‘zbekiston iqtisodiyotining kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Raqamlashtirish, xalqaro integratsiya va moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish yo‘nalishlarida izchil ishlarni davom ettirish orqali mamlakat fond bozori global miqyosda raqobatbardosh bo‘lishi mumkin. Shu yo‘nalishda amalga oshiriladigan har bir qadam milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlashga va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Fond bozori rivoji – bu nafaqat iqtisodiy taraqqiyotning ko‘rinishi, balki mamlakatning global maydonda o‘z o‘rnini mustahkamlash yo‘lida muhim bosqichdir. Shu bois, ushbu yo‘nalishdagi islohotlarni davom ettirish O‘zbekistonning iqtisodiy muvaffaqiyatlari uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni (2021). Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-6207-sonli farmon.
2. Shiller, R. J. (2017). *Narrative Economics: How Stories Go Viral and Drive Major Economic Events*. Princeton University Press.
3. Kirilenko, A. & Lo, A. (2018). High-Frequency Trading and Its Implications for Market Stability. *Financial Markets Journal*.
4. Romer, P. M. (2018). The Impact of Technological Innovations on Economic Growth. Nobel Prize Lecture.
5. Biais, B., Foucault, T., & Moinas, S. (2021). Blockchain and the Future of Financial Markets. *Journal of Economic Perspectives*.
6. Abramov, A. (2018). Modernization of Russia’s Financial Markets and Corporate Governance. *Russian Economic Journal*.

7. Mau, V. (2020). Institutional Development of the Financial Sector in Russia. Moscow: Higher School of Economics Publishing.
8. Evstigneev, D. (2023). Integration of Russian Financial Markets into the Global Economy. Journal of International Finance.
9. IMF Staff Report. (2021). Developing Capital Markets in Emerging Economies: Challenges and Opportunities. International Monetary Fund.
10. World Bank Group. (2020). The Role of Capital Markets in Economic Development. World Bank Publications.
11. Gohberg, L. (2017). Innovative Technologies in Russia's Financial Markets. Innovation and Investment Journal.
12. OECD Report. (2021). The Role of Blockchain in Modern Financial Systems. Organisation for Economic Co-operation and Development.
13. Zingales, L. (2019). The Future of Financial Markets: Challenges and Opportunities. Harvard Business Review.
14. BlackRock Investment Institute. (2022). Global Capital Markets Outlook. BlackRock Publications.
15. <https://uzse.uz>